XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHI
QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2023 - yil 17 - yanvar VI-57-10-5-78-K/23 Zarafshon shahar hokimligi

Zarafshon shahrining 2022-yil budjeti va mahalliy budjet daromadlar rejasining ijrosi tahlili hamda 2023-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning MFY kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarini qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son Farmoni va 2021-yil 7-sentabrdagi “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6307-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-, 437-moddalari hamda Zarafshon shahar davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 21-dekabrdagi 19/5-09322-son xati, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Shaharning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar bo‘yicha 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 1-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha 2023-yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tavsiya etiladigan yer solig‘i stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashiga joriy yilning 1-dekabriga qadar keyingi soliq davri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun soliq stavkalarini belgilangan tartibda soliq organlariga kiritsin.

Qaror “Oltin vodiy” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (Z. Shomurodov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya D. Xamroyev zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **N. Rahmanov**

Xalq deputatlari Zarafshon
shahar Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-57-10-5-78-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

so‘mda

T/p	MFY nomi	Soliq stavkasining aniq miqdori	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 kv.м uchun)
1	Alisher Navoiy	400,40	0,7	280,28
2	Konchilar	400,40	0,7	280,28
3	Oltin vodiy	400,40	0,7	280,28
4	O‘zbekiston	400,40	0,7	280,28
5	Quruvchi	400,40	0,7	280,28
6	Yoshlik	400,40	0,7	280,28
7	Istiqlol	400,40	0,7	280,28
8	Tinchlik	400,40	0,7	280,28
9	Geolog	400,40	0,7	280,28
10	Bahor	400,40	0,7	280,28
11	Navro‘z	400,40	0,7	280,28
12	Yulduz	400,40	0,7	280,28
13	Yangi Zarafshon	400,40	0,7	280,28

Xalq deputatlari Zarafshon
shahar Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-57-10-5-78-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

so‘mda

T/p	**MFY nomi**	**Soliq stavkasining aniq miqdori**	**Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha))**	**Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (1 ga uchun)**
1	Alisher Navoiy	41 600 000	0,7	29 120 000
2	Konchilar	41 600 000	0,7	29 120 000
3	Oltin vodiy	41 600 000	0,7	29 120 000
4	O‘zbekiston	41 600 000	0,7	29 120 000
5	Quruvchi	41 600 000	0,7	29 120 000
6	Yoshlik	41 600 000	0,7	29 120 000
7	Istiqlol	41 600 000	0,7	29 120 000
8	Tinchlik	41 600 000	0,7	29 120 000
9	Geolog	41 600 000	0,7	29 120 000
10	Bahor	41 600 000	0,7	29 120 000
11	Navro‘z	41 600 000	0,7	29 120 000
12	Yulduz	41 600 000	0,7	29 120 000
13	Yangi Zarafshon	41 600 000	0,7	29 120 000